



_____ *hokimligi*
maktabgacha va maktab ta'limi
boshqarmasi

_____ *maktabgacha va*
maktab ta'limi bo'limi tasarrufidagi
___-umumiy o'rta ta'lim maktabi
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi
_____ *ning*
20__-20__-o'quv yilida 11-sinflar
uchun ona tili fanidan I chorak

DARS
ISHLANMALARI

“TASDIQLAYMAN”

O‘IBDO‘ _____

20__-20__-o‘quv yili uchun tuzilgan 11-sinf ona tili fanidan I chorak taqvimiy mavzu rejasi

№	Mavzu nomi	Soat	Sana	Izoh
1.	O‘zbek tili va uning taraqqiyoti	1		
2.	Nutq madaniyati	1		
3.	Madaniy nutq va uni shakllantiruvchi asosiy sifatlar	1		
4.	Nutqning to‘g‘riligi	1		
5.	Yozma nutqning to‘g‘riligi va me‘yor	1		
6.	Mustahkamlash	1		
7.	1-BSB. Matnni davom ettirish (50 ball)	1		
8.	Xato va kamchiliklar ustida ishlash	1		
9.	Nutqning aniqligi	1		
10.	Nutqning aniqligi va badiiy nutq	1		
11.	Nutqning mantiqiyliigi	1		
12.	Mantiqiylik va grammatik vositalar	1		
13.	Mantiqiylik va matn kompozitsiyasi	1		
14.	Nutqning sofligi	1		
15.	Nutqning sofligi va badiiy nutq	1		
16.	Mustahkamlash	1		
17.	1-CHSB (40 ball)	1		
18.	Nutqning boyligi	1		

Sana:				
Sinf:				

Mavzu: O‘zbek tili va uning taraqqiyoti

Darsning maqsadi:

Ta’limiy: o‘quvchilardagi nutqiy kompetensiyani, ya’ni tinglab tushunish, gapirish, o‘qish, yozish va nutqiy kompetensiya elementlari (tinglab tushunish, gapirish, o‘qish, yozish)ni har bir darsda amaliy qo‘llash va o‘quvchida bunga nisbatan ko‘nikma shakllantirish, berilgan nutqiy mavzularga oid matnlar, o‘quvchini mantiqiy fikrlashga yo‘naltirilgan mashqlar, savol va topshiriqlar, nutqiy mavzular mazmuniga mos rasm va grammatik mavzular bo‘yicha tushuncha berish.

Tarbiyaviy: fikrlashga, o‘zgaralar fikrini anglashga, o‘z fikrini og‘zaki hamda yozma shaklda savodli bayon qila olishiga qaratilgan nutqiy kompetensiyani shakllantirish, o‘quvchilarda grammatikaga oid o‘zlashtirilgan bilimlarni (fonetika, leksikologiya, yozuv, talaffuz va imlo me‘yorlariga oid tushunchalarni) rivojlantirish, tilning keng imkoniyatlaridan unumli foydalangan holda to‘g‘ri va ravon bayon eta olishga o‘rgatish.

Rivojlantiruvchi: o‘qish va mehnat jarayonida o‘z fikrini og‘zaki va yozma tarzda to‘g‘ri va ravon bayon qiladigan, jamoat joylarida turli nutqiy vaziyatlarda fikrini mustaqil ravishda ifoda etadigan, og‘zaki va yozma savodxonlik malakalariga ega bo‘lgan, kitobxonlik madaniyatini shakllantirish, mustaqil va ijodiy fikrlay oladigan, o‘zgaralar fikrini anglaydigan – muloqot va nutq madaniyatini rivojlantirish.

FK-fanga oid kompetensiyalar

FK1- nutqiy kompetensiya (tinglab tushunish, o‘qish, so‘zlash, yozish)

FK2- lingvistik kompetensiya (uslubiyatga oid)

Dars turi: yangi bilim beruvchi, bilimlarni mustahkamlovchi, takrorlash va umumlashtirish darsi, amaliy mashg‘ulot darsimunoazarali (interfaol) dars.

Dars uslubi: aqliy hujum, an’anaviy uslub, tushuntirish, suhbat, tezkor savol – javob, amaliy mustaqil ishlar bajarish, munozara, muammoli topshiriq, guruhlarda ishlash, ko‘rgazmali va boshqalar.

Dars metodi: an’anaviy tushuntirish metodi, savol-javob metodi, aqliy hujum, guruhlar bilan ishlash, juftlikda ishlash, mustaqil ish metodi.

Dars jihozi: mavzuga oid rasm, ko‘rgazmalar va tarqatma materiallar, o‘quv qurollari, elektron materiallar.

Darsning borishi:

№	Bo‘limlar	Vaqt
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O‘tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O‘quvchilarni rag‘batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
Jami		45 daqiqa

I. Tashkiliy qism: a) Salomlashish. b) Davomatni aniqlash.

II. Uyga vazifani so‘rash: a) Savol – javob o‘tqazish. b) Topshiriqlarni tekshirish.

III. Yangi mavzu bayoni:

Dars 1-topshiriqni bajarish bilan boshlanadi. O‘zbekiston xalq yozuvchisi O‘. Hoshimov qalamiga mansub „Charxpalak“ matni o‘qilib, unda ifodalangan g‘oya haqida fikrlashiladi.

O'quvchilar milliy qadriyat, bobomeros an'analar, ustoz-shogirdlik maqomi haqidagi mulohazalarini bayon qiladilar (*o'qish va gapirish* kompetensiyalari rivojlantiriladi). **Yechim:** ariqdagi charxpalak „yog'och gardishi ko'hna“, „temir paqirchalari zanglab ketgan“, „parraklariga ko'kintir suv o'tlari yopishgan“ va „birov yolg'ondan turtib yuborsa, rostdan qulab ketadigandek“ bo'lsa-da, o'z ishini davom ettiradi: „Yangidan yangi suv tomchilarini yuqoriga ko'tarib beraveradi“.

1-mashqda berilgan „Ona tuproq“ she'ri tinglanadi (*tinglab tushunish*). Uning g'oyasi aks etgan misralar tahlil qilinadi (*gapirish*). Milliy meros, ona tili va unga posbonlik haqidagi mulohazalar bayon etilib, har bir band uchun sarlavha topib yoziladi (*yo'zish*).

Namuna: 1. Buyuk ajdodlar beshigi – Vatan. 2. Faxr tuyg'usi. 3. Asl farzandlar – Vatan posbonlari. 4. Munosib vorislar.

2-mashqda Alisher Navoiyning so'z, til borasidagi fikrlari audio shaklida eshittirilishi maqsadga muvofiq va bu bilan *tinglab tushu nish* kompetensiyasi rivojlanadi. Tilning inson faoliyatidagi o'rni haqida bahs-munozara yuritish orqali *gapirish*, asosiy g'oyani ifodalovchi tezislar tuzish orqali esa *yo'zish* kompetensiyasi shakllanadi.

Tezis namunalari:

1. Ona tili – millatning ruhi. Xalqning ma'naviy qiyofasi, or-nomusi, orzu-umidlari, qolaversa, istiqboli ona tilida mujassam.

2. Har bir millatning o'z Vatani, oilasi bo'lgani kabi jonajon, betakror tili ham bo'ladi. Inson dunyoga kelibdiki, uning o'z Vatani, onasi, oilasi qanchalik muqaddas bo'lsa, ona tili ham shunchalik ulug'dir.

3. Ona tiliga muhabbat, avvalo, ona allasi bilan inson qalbiga singadi. Ona allasi shunday ilohiy kuchga egaki, uni eshitgan har bir inson um ri ning oxiriga qadar allaning betakror ohangini sog'inib yashaydi.

4. So'z mo'tabar, uni anglash va ehtiyotkorona qo'llash zarur.

3-mashqdagi matnni o'qib, o'quvchilarning unga munosabatlari ting lanadi. „Har kimdan bir ma'lumot“ usulida o'quvchilar o'zbek tilining taraqqiyoti haqida o'z bilganlarini qisqa ilmiy matn shaklida yozadilar (*o'qish, gapirish, yo'zish*).

4-mashqdagi matn yuzasidan o'quvchilar „Zanjir usulida“ bittadan fikr aytadilar. Shu asosda sarlavhalar topiladi.

Namunalar: Tining cheksiz imkoniyati Til bo'lmaganda... Tilning ma'rifiy ahamiyati Til – taraqqiyot omili.

5-mashqqa o'tishdan oldin o'qituvchi „Sirli sandiqcha“ni olib kiradi va savol beradi: „Kundalik hayotimizda qanday sehrli so'zlarni qo'llaymiz?“ O'quvchilar „Assalom“, „Rahmat“, „Sog' bo'ling“, „Tashakkur“, „Uzr“ kabi so'zlarni aytadilar, o'qituvchi ham sandiqchadan shu kabi so'zlar yozilgan karton varaqlarini oladi. Shundan so'ng „So'z sehr“ she'ri tinglanadi. Shunday „sehrli so'zlar“ga ko'proq misollar keltiriladi (*minnatdorman, kechiring, ofarin, hormang, barakalla* kabi). O'qituv chi mazkur mashqni bajarish jarayonida muomalaning ahamiyatiga diqqat qaratadi.

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash: Mavzuni mustahkamlash maqsadida darslikda berilgan savollarga o'quvchilar javob topadilar va ballarni qo'lga kiritadilar.

V. Darsni yakunlash: o'quvchilarni yutuq va kamchiliklarini muhokama qilish, rag'batlantirish.

VI. Uyga vazifani e'lon qilish: O'qituvchi mavzuni xulosalaydi va uyga **6-mashq**ni berib, darsni yakunlaydi.

O'IBDO': _____

(imzo)

(sana)

Sana:				
Sinf:				

Mavzu: Nutq madaniyati

Darsning maqsadi:

Ta'limiy: o'quvchilardagi nutqiy kompetensiyani, ya'ni tinglab tushunish, gapirish, o'qish, yozish va nutqiy kompetensiya elementlari (tinglab tushunish, gapirish, o'qish, yozish)ni har bir darsda amaliy qo'llash va o'quvchida bunga nisbatan ko'nikma shakllantirish, berilgan nutqiy mavzularga oid matnlar, o'quvchini mantiqiy fikrlashga yo'naltirilgan mashqlar, savol va topshiriqlar, nutqiy mavzular mazmuniga mos rasm va grammatik mavzular bo'yicha tushuncha berish.

Tarbiyaviy: fikrlashga, o'zgalar fikrini anglashga, o'z fikrini og'zaki hamda yozma shaklda savodli bayon qila olishiga qaratilgan nutqiy kompetensiyani shakllantirish, o'quvchilarda grammatikaga oid o'zlashtirilgan bilimlarni (fonetika, leksikologiya, yozuv, talaffuz va imlo me'yorlariga oid tushunchalarni) rivojlantirish, tilning keng imkoniyatlaridan unumli foydalangan holda to'g'ri va ravon bayon eta olishga o'rgatish.

Rivojlantiruvchi: o'qish va mehnat jarayonida o'z fikrini og'zaki va yozma tarzda to'g'ri va ravon bayon qiladigan, jamoat joylarida turli nutqiy vaziyatlarda fikrini mustaqil ravishda ifoda etadigan, og'zaki va yozma savodxonlik malakalariga ega bo'lgan, kitobxonlik madaniyatini shakllantirish, mustaqil va ijodiy fikrlay oladigan, o'zgalar fikrini anglaydigan – muloqot va nutq madaniyatini rivojlantirish.

FK-fanga oid kompetensiyalar

FK1- nutqiy kompetensiya (tinglab tushunish, o'qish, so'zlash, yozish)

FK2- lingvistik kompetensiya (uslubiyatga oid)

Dars turi: yangi bilim beruvchi, bilimlarni mustahkamlovchi, takrorlash va umumlashtirish darsi, amaliy mashg'ulot darsimunozarali (interfaol) dars.

Dars uslubi: aqliy hujum, an'anaviy uslub, tushuntirish, suhbat, tezkor savol – javob, amaliy mustaqil ishlar bajarish, munozara, muammoli topshiriq, guruhlarda ishlash, ko'rgazmali va boshqalar.

Dars metodi: an'anaviy tushuntirish metodi, savol-javob metodi, aqliy hujum, guruhlar bilan ishlash, juftlikda ishlash, mustaqil ish metodi.

Dars jihozi: mavzuga oid rasm, ko'rgazmalar va tarqatma materiallar, o'quv qurollari, elektron materiallar.

Darsning borishi:

№	Bo'limlar	Vaqt
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O'tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O'quvchilarni rag'batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
Jami		45 daqiqa

I. Tashkiliy qism: a) Salomlashish. b) Davomatni aniqlash.

II. Uyga vazifani so'rash: a) Savol – javob o'tqazish. b) Topshiriqlarni tekshirish.

III. Yangi mavzu bayoni:

Dars avvalida o'quvchilar bilan shirinsuxanlik, so'zni anglash va o'z o'rnida ishlata bilish haqida „Oz-oz o'rganib dono bo'lur“ mavzusi bo'yicha suhbat tashkil qilinadi. Yozuv

taxtasiga soʻz odobi haqida ibratli fikrlar yozilgan varaqlar ilinadi. Oʻquvchilar mazkur fikrlar yuzasidan oʻz mulohazalarini bildiradilar.

1. Dunyoda oqilona soʻz va yaxshi nomdan boshqasi unutiladi.
2. Soʻz doriga oʻxshaydi, ortiqchasi zarar keltiradi.
3. Har bir soʻzni haqiqiy deb soʻzlayverish xato, ammo haqiqiy soʻzni tinglash va unga amal qilish farzdir.
4. Til shirinligi koʻngilga yoqimli, yumshoqligi foydalidir.
5. Tili yomon kishi oʻz koʻngliga jarohat yetkazgani kabi boshiga ham ofat yetkazadi.
6. Koʻngli va tili bir boʻlgan kishining aytgan soʻzi butun boʻladi.
7. Aytilmagan soʻz – sof oltin. Tildan chiqqan soʻz esa mis demakdir.
8. Soʻz oʻlikni tiriltirur, tirikni oʻldirur.
9. Soʻz borki, tinglovchi taniga jon kiritadi, soʻz borki, aytuvchi boshini yelga beradi.

„Aqliy hujum“: tariximizda goʻzal nutq, nutq odobi, ona tilining qud rati kabi masalalar yuzasidan qaysi allomalarning fikrlarini, amalga oshirgan ishlarini bilasiz? Darslikdagi topshiriqni bajarish asosida *tinglab tushunish, gapirish, yozish va oʻqish* kompetensiyalari rivojlantiriladi. Matn bilan tanishiladi. Ota-onaga murojaat qilishda farzand burchi yuzasidan munozara uyushtiriladi. Fikrlar asosida har bir oʻquvchi matn uchun oʻz xulosasini yozadi va oʻqib beradi.

Nutq soʻzlovchi yoki yozuvchi tomonidan shakllantirilgan matnning tashqi koʻrinishi boʻlib, u faqatgina tilga bogʻliq hodisa sanalmasdan, ham ruhiy, ham estetik hodisa hisoblanadi. Shuning uchun unga namu naviy nutq sifatida baho berilganda tinglovchi va kitobxoniga koʻzda tutilgan maqsadning, aytilmoqchi boʻlgan muddaoning toʻliq borib yetishi, ularga maʼlum taʼsir oʻtkazishi nazarda tutiladi hamda bu vazifalarning amalga oshirilishida nutq oldiga ayrim talablar qoʻyiladi. Bular Grammatik jihatdan nutqning toʻgʻri boʻlishini, soʻzlar koʻzlangan maʼnoni aniq aks ettirishini, chiroyli, yorqin va taʼsirchan boʻlishini ta qozo qiladiki, ularga nutqning asosiy xususiyatlari sifatida qaraladi.

Nutq madaniyati – madaniy nutq, tilshunoslikning sohasi sifatida ada biy til meʼyorlari, nutq, nutqning kommunikativ sifatlari, nutq uslublari, nutqda uchrashi mumkin boʻlgan kamchilik va xatolar, nutq talaffuziga doir muammolar yuzasidan bahs yuritadi. Unda, eng avvalo, fikrning aniq, ravon, mantiqan toʻgʻri, sof, taʼsirli va maqsadga muvofiq boʻlishi talab qilinadi. Notiqlik sanʼatida eʼtiborni tortish, taʼsirchanlikni oshirish maqsadida maʼlum oʻrinlarda dialektal, jargon soʻzlarni ishlatish holati kuzatiladi. Nutq madaniyatida bu holatga yoʻl qoʻyilmaydi. Notiqlik sanʼatida intonatsiya, jest (qoʻl, yuz harakatlari)ga koʻp eʼtibor qaratiladi. Lekin har ikkisida ham fikr oʻquvchi yoki tinglovchiga yetib borib, maʼlum taʼsir koʻrsatsa, yaxshi nutq sanaladi. Tilni yaxshi bilish tilning grammatik qonunqoidalarini, lugʻat boyligini hamda fonetik va stilistik xususiyatlarini puxta oʻzlashtirib olish bilan belgilanadi. Demak, tilshunoslikda „nutq madaniyati“ termini, asosan, ikki xil maʼnoda qoʻllanishi quyidagi slayd orqali tushuntiriladi:

9-mashqqa asosan nutq odobining muloqotdagi ahamiyati haqida „Zanjir“ usulida yozma matn tuziladi: har bir oʻquvchi bittadan gap yozadi va barcha gaplar birlashtirilib, yaxlit matn hosil qilinadi (*gapirish va yozish*).

Matn namunasi:

Insonning maʼnaviy kamolotga erishuvida, jamiyatning madaniymaʼrifiy rivojida ona tilining oʻrni oʻta muhimdir. Til milliy maʼnaviyat, maʼrifat va madaniyatning eng xolis va xira tortmas koʻzgidir. Qadim zamonlardan beri har bir millat, har bir qavm oʻz tiliga

buyuk hurmat bilan qaraydi. Bu tilning sohir ohanglari og‘ushida erimoqdan adoqsiz huzur tuyadi. Bu tilga timsol topmaslikdan taskin topadi. Bu nodir boylikni dunyolarga bermaslikka hozir turadi. Chunki til millat degan birlikning tamal toshi, u boy berilsa, millat ham boy beriladi. So‘zga oshuftalik, nutqning latifligidan, undagi so‘zlarning favqulodda uyg‘unligidan zavqlanish, go‘zal va ta’sirli nutq tuzishga ayricha havas, bunday san’at sohibiga hayrat bilan qarash o‘zbeklarning azaliy urflaridandir. Aytilmoqchi bo‘lgan fikrga mos libos kiydira bilish, so‘z bilan tinglovchining qulog‘ini emas, balki qalbini ham zabt etish Sharqda, xususan, o‘zbeklarda tarbiyalanganlikning, ziyolilikning yetakchi belgilaridan hisoblangan. Shuning uchun ham bizning ming yillik madaniyatimiz va ma’naviyatimiz tarixida notiqlik san’ati, voizlik san’ati, nutq odobi o‘zining teran ildizlariga ega.

10-mashq. Matnni o‘qing. Madaniyatlilik va nutq madaniyati o‘rtasidagi aloqadorlik haqida o‘rtoqlaringiz bilan bahslashing (*o‘qish, gapirish, yozish*).

O‘quvchilar ushbu mashqni bajarish jarayonida quyidagi jadvalni to‘ldirishlari tavsiya qilinadi:

Madaniyatli inson deb kimni aytish mumkin?	Madaniyatsiz odamni qanday ta’riflaysiz?

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash: 11-mashq dagi Abdulla Avloniyning „Turkiy guliston yoxud axloq“ asaridan olingan matn eshittiriladi (*tinglab tushunish*). Undagi fikrlarga har bir o‘quvchi qisqa satrlarda (tezis shaklida) yozma munosa bat bildiradi (*yoziq*).

V. Darsni yakunlash: o‘quvchilarni yutuq va kamchilliklarini muhokama qilish, rag‘batlantirish.

VI. Uyga vazifani e’lon qilish: 12-mashq uyga vazifa qilib beriladi va dars yakunlanadi

O‘IBDO‘: _____ (imzo) _____ (sana)

vab-saytimiz: Zokirjon.com

Zokirjon.com. vab-sayiti orqali o'zingiz uchun kerakli hujjatlarni yuklab olishingiz mumkin.

Zokirjon Admin bilan

90-530-68-66, 91-397-77-37 nomerga murojaat qilishingiz, shu nomerdagi telegram orqali bog'lanishingiz nza456 yoki nza445 izlab telegramdan yozishingiz so'raladi.

Telegramda murojaatingizga o'z vaqtida javob beriladi

45 listdan iborat ona tili fanidan 11-sinf I chorak konspektini to'loq holda olish uchun telegramdan yozing.




Telegram kanalimiz:

@Maktablar_uchun_hujjatlar

To'lov uchun: **UZCARD *880*9860230104973329*summa#**

Plastik egasi Nabiyev Zokirjon



DIQQAT!!!

Sizga bu **OMONAT** qilib beriladi.
To'liq holda olganingizdan so'ng:
Faqat o'zingiz uchun foydalaning.
Hech kimga bermang hattoki eng yaqin insoningizga ham.
Internet orqali vab-saytlarga joylamang.
Kanal va gruppalariga tarqatmang.

OMONATGA

HIYONAT QILMANG.

Bizni hizmatdan foydalanib qulay imkoniyatga ega bo'ling!
Bizda maktablar uchun quydagi hujjatlar mavjud.

- 1. 1-11-Sinflar uchun kelajak soati ish reja va konspektlari**
- 2. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan to'garak hujjatlari**
- 3. Sinf rahbar hujjatlari**
- 4. Metodbirlashma hujjatlari**
- 5. Ustama hujjatlari**
- 6. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan konspektlar va tezislari**
- 7. 1-11-Sinflar uchun Ish rejalar (Taqvim mavzu rejalar)**
- 8. Maktab ish hujjatlari**
- 9. Direktor ish hujjatlari**
- 10. MMIBDO' ish hujjatlari**
- 11. O'IBDO' ish hujjatlari**
- 12. Psixolog hujjatlari**
- 13. Xotin-qizlar qo'mitasi ish hujjatlari**
- 14. Kutubxona mudirasi ish hujjatlari**
- 15. Besh tashabbus hujjatlari**
- 16. Ommalashtirish uchun dars ishlanmalar va ochiq dars ishlanmalar, taqdimotlar, slaydlar**